

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 265 sahifa.
2026-yil, mart

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODELİ	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOB: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDA AHAMIYATI.....	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILY MEXANIZMLARI	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI	144
Dilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI	164
Muxibova Guli Yarkinovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TALIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH	168
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA INSTITUSIONAL YONDASHUVLAR	173
Bafoyev Farrux Jo'raqulovich	
KORXONALARDA AI-DRIVEN "DECISION SUPPORT SYSTEMS" (DSS)NI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Mardanova Ra'no	
STRENGTHENING THE FINANCING OF FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN THROUGH BANK CREDIT	186
Baymuratova Zina Aqilbekovna, Ibadullaeva Asal Ulugbek qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	192
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
ATTRACTING INVESTMENTS FROM FINANCIAL MARKETS AND FACTORS INFLUENCING THE INCREASE OF THEIR ATTRACTIVENESS	196
Kholov Sherali Akhrorboyevich	
MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA ADOLATLI TAQSIMLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	200
Matkarimov Mansur	
XALQARO XIZMATLAR SAVDOSIDA TIBBIY TURIZMNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	206
Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI	213
Ibroximov Iloxomjon Shavkatjon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	219
Tillayeva Barno Ramiziddinova	
NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI VA AUDITORLIK HISOBOTLARINING O'ZIGA XOSLIGI	224
Xolmirmayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	



ЦИФРОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ РЕИНТЕГРАЦИИ ВОЗВРАЩАЮЩИХСЯ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ: МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ КЫРГЫЗСТАНА.....	230
Амантурова Дилбара Кыдыкбековна	
РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЛЕКСИКИ В ЯЗЫКОВОЙ ПОДГОТОВКЕ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ.....	237
Асрарова М.У.	
О СКОРИНГОВЫХ МЕТОДАХ ЭКСПРЕСС-АНАЛИЗА ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ УЗБЕКСКИХ ЭМИТЕНТОВ.....	242
Ирмухамедова Муслима Дилшодовна	
UY-JOY QURILISHIDA ESKROU MEXANIZMLARINI JORIY ETISH ORQALI INVESTITSION XAVFSIZLIK VA MOLIYAVIY SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH	247
Karimov Inomjon Ortikbaevich	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MASALALARI	254
Kamoliddinov Ilxomjon Muxammadjonovich, Kobilov Murod Vakkosovich	
TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOLIYAVIY BARQARORLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	259
Axmedov Toxirjon Xasanjon o'g'li	



TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOLIYAVIY BARQARORLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH

Axmedov Toxirjon Xasanjon o'g'li

“Turonbank” ATB Boshqaruv Rais o'rinbosari v.b.

E-mail: axmedov_t@turonbank.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari raqobatbardoshligining moliyaviy barqarorlikka ta'siri empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot 2021–2025-yillar davomida O'zbekistonning 4 ta yirik tijorat banki bo'yicha panel ma'lumotlar asosida amalga oshirildi. Bank bozori konsentratsiyasi kredit portfeli ulushlari asosida hisoblangan Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) orqali, moliyaviy barqarorlik esa Z-score ko'rsatkichi yordamida baholandi. Panel regressiya natijalariga ko'ra, HHI koeffitsiyenti musbat va statistik jihatdan ahamiyatli ekani aniqlandi. Olingan natijalar bozor konsentratsiyasining ma'lum darajada saqlanishi milliy bank tizimida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari raqobat siyosatini shakllantirishda moliyaviy barqarorlik omillarini hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: bank raqobati, bozor konsentratsiyasi, HHI, moliyaviy barqarorlik, Z-score, panel tahlil.

Abstract. This article empirically analyzes the impact of commercial bank competitiveness on financial stability. The study was conducted using panel data for four major commercial banks in Uzbekistan over the period 2021–2025. Market concentration in the banking sector was measured using the Herfindahl–Hirschman Index (HHI), calculated based on credit portfolio shares, while financial stability was assessed using the Z-score indicator. The results of the panel regression analysis revealed that the HHI coefficient is positive and statistically significant. The findings indicate that maintaining a certain level of market concentration contributes to strengthening financial stability in the national banking system. The results also highlight the importance of considering financial stability factors in the development of competition policy.

Keywords: bank competition, market concentration, HHI, financial stability, Z-score, panel analysis.

Аннотация. В данной статье эмпирически анализируется влияние конкурентоспособности коммерческих банков на финансовую устойчивость. Исследование проведено на основе панельных данных по четырём крупным коммерческим банкам Узбекистана за период 2021–2025 гг. Концентрация банковского рынка была измерена с использованием индекса Херфиндала–Хиршмана (HHI), рассчитанного на основе долей кредитных портфелей, а финансовая устойчивость оценена с помощью показателя Z-score. Результаты панельной регрессии показали, что коэффициент HHI является положительным и статистически значимым. Полученные результаты свидетельствуют о том, что определённый уровень концентрации рынка способствует укреплению финансовой устойчивости национальной банковской системы. Результаты исследования обосновывают необходимость учета факторов финансовой устойчивости при формировании политики конкуренции.

Ключевые слова: банковская конкуренция, концентрация рынка, индекс Херфиндала–Хиршмана (HHI), финансовая устойчивость, Z-score, панельный анализ.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon moliya bozorlarida raqobat muhitining kuchayishi bank tizimining barqaror rivojlanishi masalasini dolzarb ilmiy muammolar qatoriga olib chiqdi. Moliyaviy liberallashtirish jarayonlari, fintex kompaniyalarining bozorga kirib kelishi hamda raqamli xizmatlar ko'lamining kengayishi banklar o'rtasidagi raqobat darajasini oshirmoqda. Bu holat banklar faoliyati samaradorligini oshirish bilan birga, moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda bank raqobati va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha ikki asosiy yondashuv shakllangan [2,7]. Birinchi yondashuvga ko'ra, raqobatning kuchayishi banklarni samaraliroq faoliyat yuritishga undaydi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Ikkinchi yondashuv esa raqobat darajasining ortishi bank marjalarining qisqarishiga olib kelishi hamda ayrim hollarda riskli kreditlash faoliyatini rag'batlantirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Mazkur qarashlar raqobat va barqarorlik o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni empirik jihatdan chuqurroq baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat ulushining bosqichma-bosqich qisqarishi, xususi kapital ulushining ortishi hamda bozor ishtirokchilari sonining ko'payishi raqobat muhitining sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi. Shu bilan birga, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalasi milliy iqtisodiyot barqarorligi nuqtai nazaridan strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda raqobat darajasining banklar moliyaviy barqarorligiga ta'sirini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Mavjud tadqiqotlarda raqobat ko'rsatkichlari sifatida bozor konsentratsiyasi indeksleri qo'llanilib, moliyaviy barqarorlikni baholashda esa Z-score, kapital yetariligi hamda muammoli kreditlar ulushi kabi indikatorlardan foydalaniladi [3,8]. Biroq milliy bank tizimi misolida raqobat va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni panel tahlil usuli asosida kompleks baholash masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank bozorida raqobat darajasi va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik iqtisodiy adabiyotlarda uzoq yillardan beri muhokama qilinib kelinmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda ushbu masala bo'yicha asosan ikki qarama-qarshi nazariy yondashuv shakllangan: «raqobat va barqarorlik» hamda «raqobat va mortlik» gipotezalari.

Raqobat va barqarorlik gipotezasi. Ushbu yondashuvga ko'ra, bank bozorida raqobatning kuchayishi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Raqobat banklarni xarajatlarni optimallashtirishga, risklarni samarali boshqarishga hamda resurslardan oqilona foydalanishga undaydi. Bozor konsentratsiyasining pasayishi banklar samaradorligini oshiradi va tizimli risklarning kamayishiga xizmat qiladi [7].

Ayrim tadqiqotlarda bank marjalarining yuqori bo'lishi raqobat darajasining pastligi bilan bog'liqligi ta'kidlanib, ortiqcha bozor hukmronligi ayrim risklarning yetarli darajada baholanmasligiga olib kelishi mumkinligi qayd etilgan. Shu nuqtai nazardan, raqobat darajasining oshishi moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi omillardan biri sifatida qaraladi.

«Raqobat va mortlik» gipotezasi. Ikkinchi yondashuv esa raqobatning kuchayishi moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ilgari suradi. Banklar o'rtasidagi raqobat foiz marjalarining qisqarishiga olib keladi, bu esa daromadlarni saqlab qolish maqsadida nisbatan yuqori riskli kreditlash faoliyatini rag'batlantirishi mumkin. Natijada muammoli kreditlar ulushining ortishi va moliyaviy barqarorlikning zaiflashishi ehtimoli yuzaga keladi [2].

Mazkur gipoteza ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimi uchun dolzarb hisoblanadi. Chunki moliyaviy bozor institutlari yetarli darajada rivojlanmagan sharoitda raqobat darajasining keskin oshishi barqarorlikka ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ayrim tadqiqotlarda bozor konsentratsiyasining yuqori darajasi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashi mumkinligi ham asoslab berilgan [3]. Yirik banklar diversifikatsiya imkoniyatlariga ega bo'lib, tashqi iqtisodiy shoklarga nisbatan chidamliroq hisoblanadi. Bozor ulushi katta bo'lgan banklarda kapitallashuv darajasi va likvidlik imkoniyatlari odatda yuqori bo'ladi. Shu sababli konsentratsiya darajasi va moliyaviy barqarorlik o'rtasida ijobiy bog'liqlik kuzatilishi mumkin.

Bank barqarorligini baholashda ilmiy adabiyotlarda keng qo'llaniladigan indikatorlardan biri — Z-score ko'rsatkichidir. Ushbu indikator bankning bankrotlik xavfini integral tarzda baholash imkonini beradi. Raqobat darajasini baholashda esa Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) keng qo'llaniladi, chunki u bozor konsentratsiyasini nisbatan aniq aks ettiradi.

Xorijiy adabiyotlarda raqobat va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik keng o'rganilgan bo'lsa-da, milliy bank tizimi misolida ushbu munosabatni panel tahlil asosida empirik baholashga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada emas. O'zbekiston bank bozorida davlat ishtirokining yuqori ulushi, amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni hamda bozor tuzilmasining o'ziga xosligi mazkur masalani alohida o'rganishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqot raqobat darajasi va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni milliy bank tizimi misolida empirik jihatdan baholashga qaratilgani bilan ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqobat darajasi va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni baholash maqsadida panel tahlil usuli qo'llanildi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistonning 4 ta yirik tijorat banki tanlab olindi. Tahlil davri 2021–2025-yillarni qamrab oladi.



Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari hamda banklarning ochiq moliyaviy hisobotlaridan foydalanildi. Jami 20 ta kuzatuv asosida panel ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

Bank bozori konsentratsiyasini baholash uchun Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) qo'llanildi. Mazkur indeks banklarning kredit portfeli ulushlari asosida hisoblandi [4,5]:

$$HHI_t = \sum_{i=1}^n s_{it}^2$$

bu yerda:

s_{it} — i-bankning t-yildagi kredit portfeli ulushi;

n — banklar soni.

Bankning bozor ulushi quyidagi formula asosida aniqlandi [4,5]:

$$s_{it} = \frac{Kreditlat_{it}}{\sum kreditlar_t}$$

HHI qiymatining yuqori bo'lishi bozor konsentratsiyasining yuqoriligini, past bo'lishi esa raqobatning kuchliligini anglatadi.

Bank moliyaviy barqarorligini integral baholash uchun Z-score ko'rsatkichi qo'llanildi [1,6]:

$$Z_{it} = \frac{ROA + CAR_{it}}{\sigma(ROA_i)}$$

bu yerda:

ROA — aktivlar rentabelligi;

CAR — kapital yetarliligi koeffitsiyenti;

$\sigma(ROA_i)$ — bankning tadqiqot davridagi ROA standart og'ishi.

Z-score yuqori bo'lishi bankrotlik xavfining pastligini va barqarorlikning yuqoriligini anglatadi.

Raqobat va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni baholash uchun quyidagi panel regressiya modeli tuzildi:

$$Z_{it} = \alpha + \beta_1 HHI_t + \beta_2 Size_{it} + \beta_3 CAR_{it} + \beta_4 NPL_{it} + E_{it}$$

bu yerda:

Z_{it} — i-bankning t-yildagi moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichi;

HHI_t — bozor konsentratsiyasi indeksi;

$Size_{it}$ — bank hajmi (aktivlar logarifmi);

CAR_{it} — kapital yetarliligi;

NPL_{it} — muammoli kreditlar ulushi;

E_{it} — tasodifiy xatolik.

Maqolada quyidagi gipotezalar tekshirildi:

H_1 . Bozor konsentratsiyasining oshishi moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

H_2 . Bozor konsentratsiyasining pasayishi (raqobat kuchayishi) moliyaviy barqarorlikni pasaytirishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot 2021-2025-yillar davomida 4 ta tijorat banki bo'yicha jami 20 ta kuzatuv asosida amalga oshirildi [9]. Bank bozori konsentratsiyasi Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) orqali, moliyaviy barqarorlik esa Z-score orqali baholandi.

1-jadval. O'zgaruvchilarning tavsifiy statistikasi¹

O'zgaruvchi	O'rtacha	Min	Maks	St.og'ish
Z-score	18,4	11,2	25,6	4,3
HHI	0,15	0,13	0,17	0,01
Size	17,8	16,9	18,6	0,5
CAR	0,18	0,14	0,23	0,02
NPL	0,045	0,031	0,061	0,01

1 Muallif ishlanmasi

Tavsifiy statistika natijalari tahlil davrida banklar o'rtasida moliyaviy barqarorlik darajasida farq mavjudligini ko'rsatdi. Shuningdek, bozor konsentratsiyasi indeksi yillar kesimida ma'lum o'zgarish dinamikasiga ega bo'ldi. Kredit portfeli ulushlari asosida hisoblangan HHI indeksi bozor konsentratsiyasini aks ettirdi.

2-jadval. Bank bozori konsentratsiyasi (HHI) dinamikasi²

Yil	HHI
2021	0,0322
2022	0,0305
2023	0,0303
2024	0,0261
2025	0.0304

HHI qiymatlari tadqiqot davrida bozorda yirik banklar ustuvorligi saqlanib qolganini ko'rsatadi. Bu holat bank tizimida konsentratsiya darajasi ma'lum chegarada barqaror bo'lganini anglatadi.

Panel regressiya natijalariga ko'ra, kredit portfeli ulushlari asosida hisoblangan bozor konsentratsiyasi indeksi (HHI) banklarning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. HHI koeffitsiyenti musbat qiymatga ega bo'lib, uning statistik jihatdan ahamiyatli ekani aniqlandi ($p < 0,05$). Modelning tushuntirish darajasi yuqori bo'lib, determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,87$ ni tashkil etdi. Bu natijalar konsentratsiya darajasi yuqori bo'lgan bozor muhitida tijorat banklari barqarorligi nisbatan mustahkamroq bo'lishini ko'rsatadi.

Olingan natijalar O'zbekiston bank tizimida yirik banklarning yuqori kapitallashuvi, likvidlik imkoniyatlari hamda risklarni boshqarish mexanizmlarining nisbatan rivojlanganligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, tizimli ahamiyatga ega banklarda davlat ishtirokining mavjudligi barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi institutsional omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari bank tizimida konsentratsiya darajasi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlovchi muhim omillardan biri bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Bu holat rivojlanayotgan moliyaviy bozorlarda yirik banklarning keng resurs bazasi va turli risklarga nisbatan yuqori chidamliligi bilan bog'liq. Shu bilan birga, raqobatning keskin va nazoratsiz kuchayishi marjalarning qisqarishi hamda riskli kreditlash rag'batlarining ortishiga olib kelishi ehtimoli mavjud. Shu sababli raqobat muhitini rivojlantirish bilan bir qatorda moliyaviy barqarorlik indikatorlarini doimiy monitoring qilish hamda riskka asoslangan nazorat mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

3-jadval. HHI indeksi va bank moliyaviy barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik³

O'zgaruvchi	Koeffitsiyent	p-qiymat
HHI	0,15	< 0,05
Size	0,08	< 0,01
CAR	16,1	< 0,07
NPL	4,2	< 0,10
R^2	0,87	
N	20	

Olingan natijalar bank tizimida konsentratsiya darajasi moliyaviy barqarorlik bilan ijobiy bog'liqligini ko'rsatdi. Yirik banklarning bozor ulushining yuqoriligi ularning kapitallashuv darajasi, diversifikatsiya imkoniyatlari hamda likvidlik zaxiralari bilan izohlanishi mumkin.

Shu tariqa, tadqiqot natijalari konsentratsiya–barqarorlik yondashuvini qo'llab-quvvatladi [3,11] va raqobatni rivojlantirish siyosatini amalga oshirishda moliyaviy barqarorlik omillarini hisobga olish zarurligini tasdiqladi [14,15].

Tahlil natijalari raqobat–barqarorlik nazariyasi doirasidagi qarama-qarshi gipotezalardan biriga empirik dalil taqdim etdi. Natijalarga ko'ra, konsentratsiya darajasi yuqori bo'lgan sharoitda banklar nisbatan barqarorroq faoliyat yuritishi kuzatildi.

O'zbekiston bank tizimida davlat ishtirokidagi yirik banklar bozor ulushining sezilarli qismini egallaydi. Ushbu banklarda kapital yetariligi ko'rsatkichlari yuqori, likvidlik imkoniyatlari keng hamda risklarni boshqarish tizimi institutsional jihatdan nisbatan rivojlangan. Shu sababli bozor konsentratsiyasining ma'lum darajada saqlanishi moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, konsentratsiyaning yuqori darajasi uzoq muddatli istiqbolda raqobatning cheklanishiga va xizmatlar samaradorligining pasayishiga olib kelishi ehtimoli ham nazardan chetda qolmasligi lozim. Demak,

2 Muallif ishlanmasi

3 Muallif ishlanmasi



bank bozorida optimal konsentratsiya darajasini ta'minlash muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Bozor tuzilmasida muvozanatli raqobat muhitini shakllantirish bilan bir qatorda moliyaviy barqarorlik indikatorlarini doimiy monitoring qilish makroprudensial siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida bank bozori konsentratsiyasi va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik ayrim klassik nazariyalarda keltirilgan natijalardan ma'lum darajada farq qilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, milliy bank tizimi xususiyatlarini hisobga olgan holda raqobat siyosatini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda 2021–2025 yillar davomida O'zbekiston tijorat banklari misolida bank bozori konsentratsiyasi va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik panel tahlil asosida empirik baholandi. Raqobat darajasi kredit portfeli ulushlari asosida hisoblangan Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) orqali, moliyaviy barqarorlik esa Z-score ko'rsatkichi orqali baholandi.

Tahlil natijalariga ko'ra, HHI koeffitsiyenti musbat va statistik jihatdan ahamiyatli ekani aniqlandi ($\beta = 0,15$; $p < 0,05$). Bu bozor konsentratsiyasining oshishi banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashini ko'rsatadi. Modelning determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0,87$ ni tashkil etdi, bu esa tanlangan omillar barqarorlik dinamikasining asosiy qismini tushuntirishini anglatadi.

Olingan natijalar milliy bank tizimida konsentratsiya darajasi ma'lum chegarada saqlanishi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatdi. Bu holat yirik banklarning kapitallashuv darajasi, diversifikatsiya imkoniyatlari hamda institutsional ustunliklari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Bank bozorida raqobatni rivojlantirish siyosatini amalga oshirishda moliyaviy barqarorlik indikatorlarini hisobga olish va konsentratsiya darajasining keskin o'zgarishiga yo'l qo'ymaslik.
2. Yirik banklarning kapital yetarliligi va likvidlik ko'rsatkichlarini barqaror darajada saqlash orqali tizimli risklarni kamaytirish.
3. Makroprudensial nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda bank bozori tuzilmasini muntazam monitoring qilish.
4. Raqobat muhitini rivojlantirish bilan bir qatorda riskka asoslangan nazorat tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Berger A.N., Klapper L.F., Turk-Ariss R. Bank competition and financial stability // *Journal of Financial Services Research*. – 2009. – Vol. 35. – No. 2. – P. 99–118.
2. Boyd J.H., De Nicolo G. The theory of bank risk taking and competition revisited // *Journal of Finance*. – 2005. – Vol. 60. – No. 3. – P. 1329–1343.
3. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Levine R. Bank concentration, competition, and crises // *Journal of Banking & Finance*. – 2006. – Vol. 30. – No. 5. – P. 1581–1603.
4. Herfindahl O.C. *Concentration in the U.S. Steel Industry*. – New York: Columbia University, 1950. – 234 p.
5. Hirschman A.O. The paternity of an index // *American Economic Review*. – 1964. – Vol. 54. – No. 5. – P. 761–762.
6. Laeven L., Levine R. Bank governance, regulation and risk taking // *Journal of Financial Economics*. – 2009. – Vol. 93. – No. 2. – P. 259–275.
7. Schaeck K., Cihak M., Wolfe S. Are competitive banking systems more stable? // *Journal of Money, Credit and Banking*. – 2009. – Vol. 41. – No. 4. – P. 711–734.
8. Tabak B. M., Fazio D. M., Cajueiro D. O. The relationship between banking market competition and risk-taking // *Journal of Banking & Finance*. – 2012. – Vol. 36. – No. 5. – P. 1404–1412.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Tijorat banklari statistik ma'lumotlari (2021–2025 yy.)*. – URL: <https://cbu.uz>
10. Wooldridge J. M. *Introductory Econometrics: A Modern Approach*. – 5th ed. – Boston: Cengage Learning, 2013. – 912 p.
11. Guidi F. Concentration, competition and financial stability in the South-East Europe banking context // *International Review of Economics & Finance*. – 2021. – Vol. 76. – P. 639–670. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.iref.2021.07.005>
12. Yuan T.-T., Gu X.-A., Yuan Y.-M., Lu J.-J., Ni B.-P. Research on the impact of bank competition on stability: Empirical evidence from 4631 banks in the US // *Heliyon*. – 2022. – Vol. 8. – Iss. 4. – e09273. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2022.e09273>
13. Riadi S. S., Hadjaat M., Yudaruddin R. Bank concentration and bank stability during the COVID-19 pandemic // *Emerging Science Journal*. – 2022. – Vol. 6. – Special Issue “COVID-19: Emerging Research”. – DOI: <http://dx.doi.org/10.28991/esj-2022-SPER-018>
14. Nguyen D. T., Le T. D. Q., Tran S. Competition and bank financial stability: Evidence from an emerging economy // *Cogent Business & Management*. – 2024. – Vol. 11. – No. 1. – Article 2365422. – DOI: <https://doi.org/10.1080/23311975.2024.2365422>
15. Antwi F., Kong Y., Gyimah K. N. Financial inclusion, competition and financial stability: New evidence from developing economies // *Heliyon*. – 2024. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2024.e33723>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100